

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 04/30.12.2019. FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**TOSHTEMIROVA CHAROS TOSHTEMIROVNA**

**ERBAHOR (*GENTIANA OLIVIERI* GRISEB.) O'SIMLIGINI  
FARMAKOGNOSTIK O'RGANISH**

**15.00.02 – farmatsevtik kimyo va farmakognoziya**

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of doctor of philosophy dissertation (PhD)**

<b>Toshtemirova Charos Toshtemirovna</b> Erbahor (Gentiana Olivieri Griseb.) o‘simligini farmakognostik o‘rganish.....	3
<b>Тоштемирова Чарос Тоштемировна</b> Фармакогностическое изучение горечавки олевые (Gentiana Olivieri Griseb.).....	21
<b>Toshtemirova Charos Toshtemirovna</b> Pharmacognostic study of the erbahor plant (Gentiana Olivieri Griseb.).....	41
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ Last of published works .....	44

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 04/30.12.2019. FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**TOSHTEMIROVA CHAROS TOSHTEMIROVNA**

**ERBAHOR (*GENTIANA OLIVIERI* GRISEB.) O‘SIMLIGINI  
FARMAKOGNOSTIK O‘RGANISH**

**15.00.02 – farmatsevtik kimyo va farmakognoziya**

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2021.1.PhD/Far80 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent farmatsevtika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi ([www.pharmi.uz](http://www.pharmi.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich</b> kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim
<b>Rasmiy opponentlar</b>	<b>Urmanova Flyura Faridovna</b> farmatsevtika fanlari doktori, professor <b>Abdullajonova Nodira G'ulomjanovna</b> kimyo fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi</b> huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi
	<b>Markazi» Davlat muassasasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «29» 11 soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 256-37-38, faks: (99871) 256-45-04, e-mail: [www.info@pharmi.uz](mailto:www.info@pharmi.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent farmatsevtika instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin 63 raqami bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 100015, g. Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 256-37-38.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «15» noyabr kuni tarqatildi.

(2024 yil «15» noyabr) da 63 raqamli reestr bayonnomasi)



**K.S. Rizayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, f.d.

**Yo.S. Kariyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, farm.f.d., professor

**F.F. Urmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, farm.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra yer yuzi aholisining 80 foizi xalq tabobatidan foydalanadi, xalq tabobati esa asosan dorivor o‘simliklarga suyanadi. Kuchli taraqqiy etgan davlatlarda oxirgi yillarda o‘simliklardan foydalanish holatlari keskin ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, dorivor o‘simlik xomashyolarining kimyoviy tarkibini aniqlash, standartlash ishlarini amalga oshirish, farmakologik faolliklarini hamda bezararligini isbotlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda jahonda xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan kam o‘rganilgan dorivor o‘simliklarning asosiy biologik faol moddalarini aniqlash, farmakognostik tahlilini o‘tkazish, samaradorligi va xavfsizligini isbotlash natijasida ularga me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash hamda ular asosida dori vositalari va biologik faol qo‘shimchalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada turli kasalliklarni davolashda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarni har tomonlama o‘rganish, biologik faol birikmalarini ajratib olib, ularning farmakologik xususiyatlarini tadqiq etish, rasmiy tibbiyotda qo‘llanilish imkonini ilmiy asoslashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda farmatsevtika sohasida aholini samarali, bezarar dori vositalar va biologik faol qo‘shimchalar bilan ta‘minlash maqsadida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda dorivor o‘simliklarni o‘stirish, xomashyosini tayyorlash va sifatini ta‘minlash bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta‘minlash darajasini 80 foizga yetkazish”<sup>1</sup> bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Bu borada xalq tabobatida diareyaga qarshi keng qo‘llaniladigan *Gentiana Olivieri* Griseb. o‘simligini standartlash, farmakologik ta‘sirini o‘rganish, tibbiyot amaliyotiga hamda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalariga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi yil PQ-4901-son «Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularni urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-55-son «2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60 -son Farmoni

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda bir qator olimlar tomonidan *Gentiana Olivieri* Griseb. o‘simligi tadqiq qilingan. T.U.Rahmatullayev va S.Y.Yunusovlar ushbu o‘simlik tarkibidagi alkaloidlarning xloroformli fraksiyasini ajratish natijasida gentioflavin, gentiananin va yangi asosli oliveramin moddalarini o‘rganishgan. N.Tulyaganov va F.S.Sadriddinovlar o‘simlikning markaziy nerv tizimiga ta’sirini tadqiq qilishgan.

Dunyo miqyosidagi quyidagi olimlar, jumladan Arsala Mansoor, I.Zaidi Mudassir, Xayder Mumtoz, Rexana Riasheyed, Y.Takeda, T.Masuda, G.Xonda, Y.Takaishi, M.Itolar, Yan Xu, Ying Li, Katxerine G. Maffucci, Linfang Xuang, Rui Zeng va boshqalar tomonidan *Gentiana* oilasiga mansub o‘simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarni kimyoviy tahlil qilish bo‘yicha olib borilgan ishlari katta ahamiyatga ega. Ular tomonidan o‘simligining yer ustki qismidan uchta yangi achchiq sekoiridoid glikozidlar, olivierozidlar A, B va C, gentiopikrozid, sverozid, 6'-O- $\beta$ -D –glyukozidlar ajratib olingan hamda ularning tuzilishi spektroskopik va kimyoviy usullar yordamida aniqlagan, shu bilan birga dorivor o‘simlikning antigipertenziv ta’siri ham isbotlangan.

Mazkur dissertatsiya ishi mahalliy dorivor o‘simlik *G. Olivieri* Griseb.ni farmakognostik tahlili, uning xomashyosini standartlash hamda ekstrakt ko‘rinishidagi diareyani oldini oluvchi «GENTIANA» biologik faol qo‘shimchani standartlash bo‘yicha birinchi ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent farmatsevtika institutining «Mahalliy dorivor o‘simlik va koordinatsion birikmalar asosida original dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi va PZ-2020122811-son «Mahalliy dorivor *Gentiana Olivieri* Griseb. o‘simligi asosida diareyaga qarshi dori vositasini yaratish» nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** *Gentiana Olivieri* Griseb o‘simligining farmakognostik aniqlash va undan olingan quruq ekstrakt hamda biologik faol qo‘shimchani standartlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Gentiana avlodi o‘simliklarini o‘rganishning joriy holati bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni qiyosiy tahlili asosida *Gentiana Olivieri* Grisebni o‘rganishning maqsadga muvofiqligini asoslash;

*Gentiana Olivieri* Griseb tarkibidagi asosiy biologik faol moddalarni aniqlash maqsadida uning kimyoviy tarkibini o‘rganish;

asosiy ta’sir etuvchi moddalarni identifikatsiya qilish va miqdorini aniqlash usullarini ishlab chiqish;

*Gentiana Olivieri* Griseb. o‘simligining xomashyosini chinligi va sifatini baholashning ishonchli mezonlarini ishlab chiqish va standartlash;

*Gentiana Olivieri* Griseb. o‘simligini saqlanish muddatlarini amaliy asoslash;

*Gentiana Olivieri* Griseb. asosida olingan quruq ekstraktning sifat me‘yorlarini aniqlash va standartlash;

olingan tadqiqot natijalarni tahlil qilish, dorivor o‘simlik xomashyosi va biologik faol qo‘shimcha uchun me‘yoriy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob‘ekti** sifatida O‘zbekistonda o‘sadigan dorivor erbahor (*Gentiana Olivieri* Griseb.) yer ustki qismi, uning asosida olingan quruq ekstrakt ko‘rinishidagi biologik faol qo‘shimcha.

**Tadqiqotning predmeti** *Gentiana Olivieri* Griseb. dorivor o‘simlik xomashyosini standartlash, uning asosidagi biologik faol qo‘shimchani sifat me‘yorlarini belgilash, tegishli me‘yoriy hujjatlarni tayyorlab, tibbiyot amaliyotiga tavsiya etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni olib borishda zamonaviy fizik- kimyoviy tahlil usullari, jumladan, spektrofotometriya (SF), yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX), yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), gaz xromatografiyasi (GX), induktiv bog‘langan plazmalı mass-spektrometriya (ISP MS), farmakologik va mikrobiologik usullar hamda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor *Gentiana Olivieri* Griseb. xomashyosi tarkibidagi asosiy biologik faol moddalar (alkaloidlar, iridoid glikozidi, polisaxaridlar, lipidlar, vitaminlar, aminokislotalar, flavonoidlar, oshlovchi moddalar, makro- va mikroelementlar)ning kimyoviy va miqdoriy tarkibi aniqlangan;

*Gentiana Olivieri* Griseb. xomashyosi uchun xos bo‘lgan diagnostik ahamiyatga ega bo‘lgan belgilari (ustunsimon parenxima hujayrasi yirik, cho‘zinchoq, xlorofill donachalari, murakkab kraxmal donachalari) va uning sifatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan;

*Gentiana Olivieri* Griseb. xomashyosi tarkibidagi asosiy ta‘sir etuvchi modda-oshlovchi moddalarning to‘planish dinamikasi o‘rganilgan va o‘simlik qiyg‘os gullagan davrida maksimal darajada bo‘lishi aniqlangan;

tahlil qilingan xomashyoning quruq ekstrakti asosida ishlab chiqilgan diareyani oldini oluvchi «GENTIANA» biologik faol qo‘shimchani standartlash usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*Gentiana Olivieri* Griseb dorivor o‘simlik xomashyosining sifat me‘yorlari belgilangan hamda uni optimal saqlash sharoitlari va yaroqlilik muddatlari ishlab chiqilgan;

*Gentiana Olivieri* Griseb dorivor o‘simlik xomashyosining zararsizligi aniqlangan, hamda diareyaga qarshi faolligi “Loperamid” va “Entoban” dori preparatlaridan kam emasligi isbotlangan;

quruq ekstrakt ko‘rinishidagi “GENTIANA” biologik faol qo‘shimchani tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish maqsadida “Abduxoliq PHARM” MChJ bilan hamkorlikda me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi zamonaviy matematik va statistik tahlil usullari hamda UB-, IQ-, mass-spektrometriya kabi zamonaviy tadqiqot uskunalari yordamida olingan natijalar bilan belgilanadi. Ishlab chiqilgan tahlil usullari laboratoriya sharoitlarida sinovdan o‘tganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy dorivor o‘simlik *Gentiana Olivieri* Griseb xomashyosini son ko‘rsatkichlari va anatomik-diagnostik belgilari, hamda alkaloidlar, iridoid glikozidi, polisaxaridlar, lipidlar, vitaminlar, aminokislotalar, flavonoidlar, oshlovchi moddalar, makro- va mikroelementlarning kimyoviy tarkibi aniqlanganligi, shuningdek ularning miqdoriy tahlili uchun yuqori sezgirlik va aniqlikka ega bo‘lgan spektrofotometrik, YuSSX–mass- spektrometrik usullarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Gentiana Olivieri* Griseb xomashyosi “GerboFarm” XK bilan hamkorlikda korxonada farmakopeya maqolasining loyihasi tayyorlanganligi hamda O‘zR SSV “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” Davlat muassasasiga topshirilganligi bilan izohlanadi, ushbu hujjatning tasdiqlanishi diareyaga qarshi ta’sirli dori vositalari va BFQLarni ishlab chiqish xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Erbahor (*Gentiana Olivieri* Griseb.) o‘simligini farmakognostik o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*Gentiana Olivieri* Griseb o‘simligi xomashyosi uchun korxonada farmakopeya maqolasi loyihasi O‘zR SSV huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun topshirilgan («Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasining 2023 yil 25 martdagi 41/11-4132-son xati, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil 15 oktabrdagi 8n-3/280-son xati). Ushbu me‘yoriy hujjatning tasdiqlanishi samarali diareyaga qarshi dori vositasini ishlab chiqarish imkonini beradi;

*Gentiana Olivieri* Griseb yer ustki qismidan olingan biologik faol qo‘shimcha uchun Texnik shartlar (Ts 28275514-012:2023) hamda uni ishlab chiqarish bo‘yicha Texnologik yo‘riqnoma (TI 28275514-012:2023) O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan. Natijada «Abduxoliq PHARM» MChJda quruq ekstrakt ko‘rinishidagi biologik faol qo‘shimchani ishlab chiqarish imkonini bergan;

o‘tkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida *Gentiana Olivieri* Griseb o‘simligi dorivor xomashyosining spesifik faolligi va bezararligi isbotlangan (Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil 15 oktabrdagi 8n-3/280-son xati). Natijada diareyaga qarshi dorivor substansiyasining samarasi va bezararligi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, adabiyotlar sharhi, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mahalliy dorivor o'simliklar diareyaga qarshi vosita sifatida**» nomli birinchi bobida adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili keltirilgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasida diareyaga qarshi dori vositalari assortimentining tahlili, Mahalliy *Gentiana Olivieri* Griseb o'simligi turlari va sistematik holati, botanik va ekologik-geografik o'ziga xosligi, uning xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda qo'llanilishi, gazako'rdosh turlari bo'yicha fitokimyoviy tadqiqotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotning material va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'yektlari, standartlashtirishda qo'llanilgan tahlil usullari, *G. olivieri* o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganishda qo'llanilgan fizik-kimyoviy tadqiqot usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mahalliy *Gentiana Olivieri* Griseb o'simligining kimyoviy tarkibini o'rganish**» deb nomlangan uchinchi bobida ob'yektni yig'ish va tahlilga tayyorlash, tadqiqot usullari, kimyoviy tarkibi, xususan o'simlik xomashyosini biologik faol moddalari asosiy guruhlarini topish, identifikatsiya qilish va miqdoriy aniqlash bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Mahalliy *G. olivieri* dorivor xomashyosi ko'p o'sadigan joyi va zaxirasi aniqlab olindi. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi O'rmon xo'jaligi agentligining Jovuz Davlat O'rmon xo'jaligi va Samarqand viloyati Pastarg'om tumani «Ziyo Demir Farm Asl Giyoh» xususiy korxonalar rahbarlari tomonidan *G. olivieri* o'simligini dori vosita ishlab chiqarish uchun mahalliy o'rmon xo'jaligi hududi bo'ylab xomashyo bazasi yetarli darajada ekanligi, zarur holatlarda plantatsiyalarni yaratish va kengaytirish imkoniyatlari mavjudligi bo'yicha malumotnomalar olindi.

O'simlik xomashyosi yuqorida qayd etilgan 3 ta viloyatdan may-iyun

oylarida terib keltirildi, salqin va bahavo joyda quritildi. O‘simlik xomashyosi kimyoviy tahlil qilindi. Tahlil natijasida birlamchi biosintez birikmalaridan mono- va polisaxaridlar, aminokislotalar, lipidlar, vitaminlar va makro va mikro elementlar aniqlandi. Asosiy biologik faol moddalar identifikatsiya qilindi, jumladan flavonoidlar, alkaloidlar, oshlovchi moddalar, glikozidlar, uglevodlar, aminokislotalar, lipidlar, vitaminlar, mineral moddalar va izooriyentin miqdori samarali zamonaviy tahlil usullari, xususan GX, GX-MS, YUSSX, YUSSX-MS, ICP-MS yordamida isbotlandi. *Gentiana Olivieri* Griseb. yer ustki qismi tarkibidagi alkaloidlar YUQX usulida, ularning umumiy miqdori qayta neytrallash usuli yordamida aniqlandi. Unga ko‘ra alkaloidlar yig‘indisi 0,036%ni tashkil qildi. *Gentiana Olivieri* Griseb o‘simligining yer ustki qismi tarkibidagi iridoid glikozidlar yupqa qatlam xromatografiya usulida aniqlandi, iridoid glikozidlar borligi aniqlandi.

Mahalliy *G. olivieri* dorivor xomashyosidan ajratib olingan polisaxaridlar ularni fraksiyalarga ajratilgandan so‘ng tadqiq etildi.

Ajratib olingan polisaxaridlar identifikatsiyasi IQ-spektrometriya usulida o‘tkazildi. Suvda eruvchan polisaxaridlar o‘simlik xomashyosini 20-22<sup>o</sup> xona haroratida suv bilan ekstraksiya qilish orqali olindi.

### 1-jadval

#### O‘simlik tarkibidagi polisaxaridlar unumi va ularning monosaxarid tarkibi

O‘simlik nomi	PS turi	Unum, %	Monosaxarid miqdori va ularning tarkibi, %						Uk, QX
			Rha	Ara	Xyl	Man	Glc	Gal	
<i>G. olivieri</i> (Jizzax)	SEPS	6.4	1.1	18.6	2.1	1.0	9.7	37.5	+
	PM	3.8	1.0	17.2	1.2	1.3	7.1	25.8	+
	GMS	0.9	0.7	15.7	1.4	1.9	5.5	21.4	+
<i>G. olivieri</i> (Samarqand)	SEPS	5.3	1.5	4.9	5.1	1.0	2.5	26.0	+
	PM	2.8	2.0	16.0	2.5	1.3	0.1	8.4	+
	GMS	1.2	2.0	12.0	2.5	1.6	8.4	7.6	+
<i>G. olivieri</i> (Qashqadaryo)	SEPS	3.4	0.5	12.9	3.1	0.5	8.5	16.0	+
	PM	1.8	0.8	12.0	1.5	1.0	6.1	14.4	+
	GMS	1.2	1.0	15.0	1.5	1.2	5.4	11.6	+


Suvda eruvchi polisaxaridlar (SEP) unumi 6.4% ni, pektin moddalarning unumi 3.8% ni, Gemitsellyulozalar (GS) unumi 0.9% ni tashkil etib, monosaxaridlar QX natijalariga ko‘ra uron kislotalari va neytral monosaxaridlardan iborat ekanligi aniqlandi. Monosaxaridlar tarkibida galaktoza va arabinoza miqdori yuqori ekanligi ko‘rildi (1-jadval). Jadvaldan ko‘rish mumkinki, neytral va kislotali muhitdagi suvda eruvchan polisaxaridlarning monomer tarkibi D-galaktoza, L-arabinoza va D-glyukozadan iborat. Polisaxarid

tarkibining asosan D-galaktoza, L-arabinoza birliklardan iborat ekanligi asosiy polisaxarid zanjir arabinogalaktanlardan iborat ekanligini isbotlaydi.

**Makro-mikroelement tahlil.** *G. olivieri* o'simligi yer ustki qismi tarkibidagi makro-va mikroelementlar ICP-MS (induksion bog'langan plazma mass-spektrometri) AT 7500 asbobi bilan spektral tahlil usulida aniqlangan. 61 ta makro-va mikroelementlar mavjudligi tasdiqlandi.

Namunalarda makroelementlardan eng ko'p miqdorda K, Ca, P, Mg, Al, Na, Fe elementlari saqlanishi aniqlandi. Mikro elementlardan Bor, Marganes mutloq ustunlikni ko'rsatgan bo'lsada Zn, Co, Ti, Cu, Sr, Ba, Rb elementlari ham e'tiborga molik darajadagi konsentratsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Eng kam miqdorda simob saqlashini ko'rish mumkin. O'rganilayotgan xomashyo tarkibida organizmning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kaliy, kalsiy, fosfor, magniy, alyuminiy, natriy, temir, kobalt, marganes, mis, xrom va ruxning mavjudligi ma'lum darajada uning farmakologik qiymatini oshiradi.

**Mahalliy *G. olivieri* dorivor xomashyosi tarkibidagi aminokislotalar o'rganildi (1-rasm).** Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan mahalliy *G. olivieri* o'simligi tarkibidagi tahlil qilinayotgan aminokislotalarning sifat tahlili va konsentratsiyalari miqdoriy hisobini aminokislotalarning standart (Agilent Technologies) cho'qqilari maydoni (S)ni va ushlanish vaqtlariga (RetTime) ko'ra taqqoslab o'rganildi. Rasmlardan ko'rinib turibdiki, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan mahalliy *G. olivieri* o'simligi tarkibidagi aminokislotalar xromatogrammasida standart aminokislotalarnikiga muvofiq 20 ta aminokislotalar cho'qqilari va mos ushlanish vaqtlari mavjud.



**1-rasm. Aminokislotalar ishchi standart namunalari va Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari *G. olivieri* o'simligi tarkibidagi aminokislotalarning xromatogrammalari**

*G. olivieri* o'simligida erkin va bog'langan aminokislotalarning spetsifik to'plami 20 tarkibiy qismdan iboratligi, ulardan, 10 tasi (yulduzcha bilan belgilangan) almashib bo'lmaydigan aminokislotalar ekanligi aniqlandi (2-jadval). Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra Samarqand viloyatida glyutamin, tirozin, sistein,

prolin, Jizzax viloyatida asparagin, glutamin, glitsin, tirozin va Qashqadaryo viloyatlarida asparagin, glyutamin, glitsin, sistein ulushi yuqori bo‘lib chiqdi.

2-jadval

**G. olivieri o‘simligi tarkibidagi aminokislotalar tarkibi**

Aminokislotalar	Samarqand	Jizzax	Qashqadaryo
	konsentratsiya (mg/gr)		
Asparagin kislota	0,252744	0,432738	0,197241
Glyutamin kislota	0,297289	0,167087	0,157945
Serin	0,582589	1,215561	0,830357
Glisin	0,172879	2,972847	1,616324
Asparagin	0,34865	5,964653	3,231362
Glyutamin	2,75664	3,215471	3,159031
Sistein	1,019672	2,339891	2,533333
Treonin*	0,703812	0,598566	0,346693
Argenin*	0,543038	0,813651	0,58955
Alanin	0,285026	0,440678	0,190484
Prolin	1,004854	1,488526	0,672992
Tirozin*	1,226887	1,714165	0,540288
Valin*	0,598054	0,852843	1,035573
Metionin*	0,477111	0,409334	0,300238
Izoleysin*	0,299409	0,593164	0,503213
Leysin*	0,658733	1,180122	0,899968
Gistidin*	0,419455	1,112144	0,504957
Triptofan	0,261614	0,285452	0,223716
Fenilalanin*	0,092638	0,268811	0,293083
Lizin HCl*	0,163126	0,227054	0,155511
Jami:	12,16422	26,29276	17,98186

*Mahalliy G. olivieri dorivor xomashyosining lipid tahlili.* NLdan ishqorli gidroliz bilan sovuqlanmaydigan moddalar ajratildi. NL va PL yog‘ kislotalarining tarkibini aniqlash uchun aniqlanuvchi namunalar ishqorning spirtidagi eritmasi bilan gidrolizlandi va ajralgan yog‘ kislotalari yangi tayyorlangan diazometan bilan metillandi.

Neytral lipidlarni (NL) maydalangan xomashyodan magnitli qorishtirgichda 60<sup>o</sup> haroratda 2 soat davomida 3-marta takrorlab benzin (qayn.h.72-80<sup>o</sup>) bilan ekstraksiya qilish orqali olindi, ekstraktlar birlashtirildi, erituvchini rotorli bug‘latkichda bug‘latildi, lipidlarni miqdori og‘irlik usulida aniqlandi.

NL va PL yog‘ kislotalarining tarkibini aniqlash uchun aniqlanuvchi namunalar ishqorning spirtidagi eritmasi bilan gidrolizlandi va ajralgan yog‘ kislotalari yangi tayyorlangan diazometan bilan metillandi. Yog‘ kislotalari metil efirlari tahlili GX usuli alanga ionlanuvchi detektorli Agilent 6890 N uskunasi, HR-5 30m x 0.32mm o‘lchamli kapilyar kolonka, tashuvchi gaz-geliy, dasturlash harorati 150-270<sup>o</sup> da amalga oshirildi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

**G. olivieri NL va PL yog' kislotalari tarkibi, kislotalarning og'irligi bo'yicha %**

Yog' kislota	Tarkibi	
	NL	PL
Kaprin, 10:0	-	0,23
Laurin, 12:0	0,22	Sl.
Miristin, 14:0	2,05	1,15
Pentadekan, 15:0	0,43	0,27
Palmitin, 16:0	27,71	29,55
Palmitolein, 16:1	0,82	0,71
Margarin, 17:0	0,56	0,41
Stearin, 18:0	2,86	4,43
Olein, 18:1 $\omega$ 9	22,79	20,96
*Linolen, 18:3 $\omega$ 3		
Linol, 18:2 $\omega$ 6	30,21	27,52
Araxin, 20:0	1,33	3,73
Eykozen, 20:1 $\omega$ 11	1,94	0,52
Begen, 22:0	0,65	2,16
Eruk, 22:1	6,74	4,32
Lignotserin, 24:0	2,30	1,69
Serotin, 26:0	1,74	-
$\sum$ to'yingan YOK	37,50	45,97
$\sum$ to'yinmagan YOK	62,50	54,03

Ilk bor *G. olivieri* o'simligi yer ustki qismida umumiy lipidlar miqdori va yog' kislotalar tarkibi o'rganildi. Yer ustki qismida to'yinmagan yog' kislotalar miqdori ko'pligi ( $\sum$ to'yinmagan YOK-NL-62,50%,  $\sum$ to'yinmagan YOK-PL -54.03%) aniqlanildi. Tadqiqot natijasida tibbiyot amaliyotida odam organizmida moddalar almashinuvida juda katta ahamiyatga ega to'yinmagan yog' kislotalari (linol, linolen, araxidon va boshqalar) ulushi nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

*Mahalliy G. olivieri dorivor xomashyosining vitaminlar tarkibini aniqlash.* O'simlik tarkibida tutgan suvda eruvchi vitaminlar tahlili YUSSX usulida o'rganildi. Xromotografga dastlab, ishchi standart eritmalar, keyinchalik tayyorlangan ishchi eritmalar kiritildi. (4-jadval)

**Mahalliy G. olivieri o'simligi tarkibidagi vitaminlar miqdori**

Vitaminlar	Qashqadaryo	Jizzax	Samarqand
	Konsentratsiya mg/gr		
B-1	0.941431	1.324679	0.922269
B-2	14.03396	22.75356	12.32676
B-6	15.17337	13.6061	11.28988
B-9	2.759563	11.55738	8.825137
PP B-3	0.483739	0.561928	0.354857
C	8.231612	6.647887	6.604069

Jadvaldan ko'rish mumkinki, 3 ta viloyatlardan terib olingan *G. olivieri* o'simliklari tarkibida B1, B2, B6, B9, PP B3, C vitaminlari mavjudligi, ular ichida Jizzax viloyatidan olingan o'simlik tarkibida vitaminlar qolgan viloyatlardagidan ko'ra nisbatan yuqori miqdorlarni tashkil etadi. Umumiy olganda o'simliklar eng


ko'p B2 vitamini, B6 vitamini, B9 vitamini va C vitaminlari tutishi aniqlandi. Eng kam vitamin esa PP B3 vitamin xissasiga to'g'ri kelgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Mahalliy *Gentiana Olivieri* Griseb o'simligini standartlash**" deb nomlangan bo'lib, unda zamonaviy tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshirilgan dorivor xomashyo chinligi hamda sifatini me'yorlashtiruvchi son ko'rsatkichlari o'rganish natijalari keltirilgan.

Xomashyoning chinligi uning tashqi va anatomik-diagnostik belgilarini o'rganish, asosiy ta'sir etuvchi moddalarni sifat reaksiyalari bilan aniqlash natijalari bo'yicha belgilandi. Makroskopik tahlil yordamida aniqlangan xomashyoning tashqi belgilari adabiyotlarda olingan ma'lumotlarga mos keldi.

*G. olivieri* o'simligining yer ustki (barg, poya, gulpoya) va yer ostki (ildiz) organlarining anatomik tuzilishini o'rganish maqsadida o'simlik generativ davrining gullash fazasida 70% li etanolda fiksatsiya qilindi. O'simlikning vegetativ organlarini strukturaviy belgilarini o'rganishda bargning o'rta, barg bandi va poyaning asos qismlaridan ko'ndalang kesiklar tayyorlandi. Kesiklar metilen ko'ki va safranin bo'yoqlari yordamida bo'yalib, glitserin-jelatin bilan yopishtirildi (Barikina, Veselova, Devyatov, 2004). O'simlikdagi assimilyatsiyalovchi va o'q organlarining asosiy to'qima va hujayralar K. Yesau (1969), N.S. Kiseleva (1971), epiderma – S.F. Zaxarevich (1954), barg og'izchalarining tiplari M.A. Baranova (1981) bo'yicha tavsiflandi. Mikrofotosuratlar kompyuter mikrofonasatkasi, *Sanon* firmasining A123 rusumli raqamli fotoapparati hamda *Motic B1-220A-3* rusumli mikroskop yordamida aniqlandi.


*G. olivieri* bargning anatomik tuzilishi paradermal kesiklarida adaksial (ustki) epiderma hujayra devorlari nisbatan to'liqsimon, abaksal (ostki) epiderma hujayra devorlari esa kuchli to'liqsimon, ko'pburchaklidir. Adaksial epiderma hujayralari abaksial epidermaga nisbatan ancha yirikroqligi aniqlandi (2-rasm).



**2-rasm. *G. olivieri* barg epidermisining ichki tuzilishi. a,b- ustki epidermis; v,g- ostki epidermis. Shartli belgilar: U- og'izcha, E- epiderma**

Bargning ko'ndalang kesigida barg mezofilli dorsiventral tipli (Butnik, Tursinbayeva, Duschanova, 2015) bo'lib, ustunsimon hujayralar adaksial epiderma hujayrasining ostida, g'ovaksimon hujayralar esa abaksial epiderma va ustunsimon hujayralarining orasida joylashgan.

Epiderma hujayrasi yupqa devorli ovalsimon shakldagi bir qator hujayralardan iborat. Adaksial va abaksial epiderma hujayralarining orasida ustunsimon va g'ovaksimon hujayralardan iborat assimilyatsiyalovchi to'qima joylashgan. Ustunsimon parenxima hujayrasi yirik, cho'zinchoq, xlorofill donachalariga ega bo'lib, ikki qatordan iborat (3-rasm).



**3-rasm. *G. olivieri* barg mezofilasining ichki tuzilishi:**

*a*-asosiy barg venasining umumiy ko'rinishi; *b* - *v* –barg mezofillasining qismi; *g* –epiderma, kollennxima, parenxima; *d* –suvga cho'kmagan og'izcha va palisadnyy parenxima; *ye*-o'tkazuvchi bog'lamlar; *j-z*- suvga cho'kmagan og'izcha, g'ovaksimon parenxima va hujayralararo bo'shliqlar;

Shartli belgilar: : *GP*- g'ovaksimon parenxima; *KL* – kollennxima; *Ks*- ksilema; *Mj* - hujayralararo bo'shliqlar; *P*-palisadnyy parenxima; *PP* -o'tkazuvchi bog'lamlar; *Px* – parenxima hujayralari; *U*-og'izcha; *F*- floyema; *E*-epiderma

*G. olivieri* gulpoyaning anatomik tuzilishi ko'ndalang kesikda to'rt qirrali burchaksimon shaklida bo'lib, bog'lamsiz tipliligi aniqlandi. Gulpoya tashqi tomondan bir qator ovalsimon shakldagi epiderma hujayralar bilan qoplangan.

Epiderma hujayralarida oddiy bir hujayrali va ko'p hujayrali, boshchasimon va sharsimon ko'p hujayrali bezsimon trixomalar mavjud. Gulpoyaning to'rt qirrali periferik qismida 9-10 qator burchaksimon kollennima hujayralari guruh holda joylashgan

*G. olivieri* yer ustki qismining spetsifik biologik faolligi avvalambor flavonoidlar va oshlovchi moddalar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, xomashyoni kimyoviy standartlash jarayonida ular mahsulotning chinligi va sifatligini belgilovchi asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Flavonoidlarni mahsulotda aniqlash uchun alyuminiy xlorid bilan, oshlovchi moddalarni 3% li Temir (III) xlorid bilan o'tkaziladigan klassik reaksiya o'tkazildi va asosiy mezon sifatida tavsiya etildi.


Ushbu reaksiya flavonoidlar YUSSX usuli, oshlovchi modda titrametrik miqdoriy tahlilida qo'llanilgan farmakopeya usulining asosini tashkil qiladi.

Respublikaning Jizzax viloyatidan terilgan o'simlik xomashyosining 20 ta partiyasida oshlovchi miqdorini aniqlash tadqiqotlari olib borildi va uning natijalarini inobatga olgan holda ularning xomashyodagi oshlovchi moddalar 15% dan kam bo'lmasligi belgilandi.


*G. olivieri* yer ustki qismida flavonoidlar va oshlovchi moddalar dinamikasini o'rganish o'simlik rivojlangani sayin sezilarli o'zgarishlarga uchrashini ko'rsatdi: gullash davrida flavonoidlar 2.1%, oshlovchi moddalar 15.6% maksimal darajada to'planishi, so'ngra kamayishi aniqlangan. Shu sababli xomashyoni tayyorlashning optimal muddati etib o'simlik gullagan davri belgilandi. Olingan ma'lumotlardan *G. olivieri* xomashyosini yig'ish va quritish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqish uchun foydalanildi.

*G. olivieri* dorivor xomashyo namligi, umumiy va 10%li xlorid kislotada erimaydigan kuli, maydalik darajasi, aralashmalar tarkibi (organik, mineral, o'simlikning boshqa qismlari), mikrobiologik tozaligi, tarkibidagi radionuklidlar, qoldiq pestitsidlar miqdori kabi ko'rsatkichlarini aniqlash O'zR DF talablari bo'yicha amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari xomashyoning ekologik tozaligi va qo'llashda xavfsiz ekanligini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishining keyingi bosqichida, YUSSX usulida *G. olivieri* tarkibi tahlil qilindi. Buning uchun tahlil uslubi ishlab chiqilib, optimal xromatografik sharoitlar tanlandi. Tadqiqot uchun kerakli sharoitlar: xromatograf 1200-Agilent Technologies, qo'zg'aluvchan faza (gradiyentli rejim) -atsetonitril: atsetatli bufer pH=2.92 (4% : 96%) 0-6 daq., (10% : 90%) 6-9 daq., (20% : 80%) 9-15., (4% : 96%) 15-20 daq; kolonka o'lchami 6x150 mm, zarrachalar o'lchami 3,0 mkm bo'lgan, Yeclipse XDB - C18 sorbent bilan qoplangan; injeksiya miqdori – 20 mkl; qo'zg'aluvchan faza tezligi -1,0 ml/daq; detektor - diod-matritsali, to'lqin uzunligi 370 nm. Olingan natijalar 4-5-rasmlarda keltirilgan.





4 -rasm. Rutin flavonoid standart namunalarining xromatogrammasi




5-rasm. “*Gentiana Olivieri Griseb*” o‘simligi tarkibidagi flavonoidlarning xromatogrammasi

O‘simlikdan olingan spirtli ajratma YUSSX usulida tahlil qilinganda izooriyentinga mos (8,764 daqiqada) cho‘qqi xosil qilishi aniqlandi.



6 -rasm. Izooriyentin flavonoid ishchi standart namunalarining xromatogrammasi




<Peak Table>

Peak#	Ret. Time	Area	Height	Conc.	Unit	Mark	Name
1	1.515	251010	30938	2.291			
2	4.083	32046	6947	0.293			
3	5.468	23023	4704	0.210			
4	8.764	10648436	682464	97.206			
Total		10954514	725052				

7-rasm. “*Gentiana Olivieri Griseb*” o‘simligi tarkibidagi izooriyentin flavonoidlarning xromatogrammasi

O‘simlik xomashyosining spirtli ajratmasining YUSSX xromatogrammasi keltirilgan bo‘lib, unda tegishli standart moddalarga mos keladigan flavonoidlar


mavjudligi aniqlandi. Izooriyentin flavonoidini identifikatsiyalash maqsadida mass-spektrometriya usulidan foydalanildi (izooriyentinni brutto formulasi  $C_{21}H_{20}O_{11}$  va molekulyar massasi 448,38 g/mol ga teng). Olib borilgan tadqiqotlar natijasi 7-rasmda keltirilgan. Natijalar tahlil qilinganda, izooriyentinga mos (8,764 daqiqada) cho‘qqi hosil bo‘lganligi aniqlandi, xromatomass-spektrometriya tahlili bilan tasdiqlandi (8-rasm). Olingan natijaga ko‘ra xomashyo tarkibida Izooriyentin flavonoidi mavjudligi isbotlandi.




### 8-rasm. Izooriyentin flavonoidi mass-spektrometriya usulida tahlili

Flavonoidlarning standart namuna eritmalarining xromatogrammasida 13.172 daqiqada rutin va 8,764 daqiqada izooriyentinni ushlanish vaqtlari aniqlandi (5,7-rasmlar). Flavonoidlarni miqdorini hisoblash natijasida rutin 2.1%, izooriyentin 1.35%ni tashkil qildi.

*G. olivieri* dorivor o‘simligi xomashyosining diareya kasalliklarida najasni qotiruvchi xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, xomashyo tarkibidagi oshlovchi moddalarni o‘rganish maqsadga muvofiq. O‘simlik yer ustki qismi tarkibidagi oshlovchi moddalarning miqdori ko‘rsatkichlari O‘zR DF ko‘rsatmasiga asosan permanganometriya usuli yordamida aniqlandi. Oshlovchi moddalar gall kislotasiga nisbatan ham YUSSX usuli yordamida aniqlandi. Olingan natijalar 9-rasm va 5-jadvalda keltirilgan. Analizda “Agilent-1200” yuqori samarali suyuqlik xromatografidan foydalanildi. Kolonka Agilent C18 5mkm, 4,6x250mm zarrachalar bilan qoplangan. Qo‘zg‘aluvchi faza 0,1% ortofosfat kislota va atsetonitril, detektorlash 254 nm, tajribaga sarflangan vaqt 10 daq., namuna yuborish tezligi 0,8 ml/daq, yuboriluvchi namuna miqdori 10 ( $\mu$ ) mkl.



9-rasm. Gall kislota standart namuna xromatogrammasi



**10-rasm. “*Gentiana Olivieri Griseb*” o‘simligi tarkibidagi gidrolizlangan oshlovchi moddalar xromatogrammasi**

9-rasmda keltirilgan xromatogrammada gall kislotasi standart namunasi xromatografik cho‘qqisining ushlanish vaqti 6.658 daqiqani tashkil qildi. *G. olivieri* dorivor xomashyo xromatogrammasida (10-rasm) gall kislotasi standart namunasi xromatografik cho‘qqisiga mos keluvchi 6.329 daqiqada cho‘qqi aniqlandi.

5-jadval

**Oshlovchi moddalarning miqdori va metrologik tavsifi**

Gall kislotasi, %								
$X_i$	0,044	0,045	0,046	0,046	0,047			
Metrologik tavsif								
n	f	R (%)	t (P, f)	$\bar{X}$	$S^2$	S	$\Delta \bar{X}$	$\bar{\varepsilon}, \%$
5	4	95	2,78	0,0456	0,0004426	0,0021038	0,0238	0,528

5-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra *G. olivieri* dorivor xomashyo tarkibida gall kislotasining miqdori 0,0456 % tashkil qildi. Aniqlashning xatoligi esa 0.528 % ni tashkil etdi.

Tabiiy saqlanish sharoitida *G. olivieri* o‘simligini yer ustki qismini turg‘unligini o‘rganish asosida uning tashqi belgilari va sifat ko‘rsatkichlari 3-4 yil mobaynida deyarli o‘zgarmagani belgilandi. Buni hisobga olgan holda, *G. olivieri* o‘simligini yer ustki qismini tayyorlangan vaqtdan boshlab 3 yil davomida qo‘llash tavsiya etildi.

Dissertatsiyaning “**GENTIANA quruq ekstrakti va uning asosida biologik faol qo‘shimchasini standartlash**” beshinchi bobida *G. olivieri* xomashyosi quruq ekstrakt sifat me‘yorlarini aniqlash, tahlil usullar validatsiyasi va quruq ekstraktning farmako-toksikologik xususiyatlarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Quruq ekstraktning (QE) sifat nazorati tasvirlanishi, chinligi, quritish jarayonida massaning yo‘qotilishi, og‘ir metallar, mikrobiologik tozaligi va miqdoriy tahlil kabi ko‘rsatkichlari asosida o‘tkazildi. QE jigar rangdagi, o‘ziga xos hidli kukun bo‘lib, tarkibidagi flavonoidlar miqdori 0.3% dan kam bo‘lmasligi, quritish jarayonida massaning yo‘qotilishi 5% dan ortiq bo‘lmasligi maqsadga muvofiq, deb topildi.

*G. olivieri* xomashyosi farmako-toksikologik xususiyatlari “Dori vositalarini standartlashtirish ilmiy markazi”da hamda O‘zR FA A.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo institutining Farmakologiya va biologik faol moddalar skriningi laboratoriyasida o‘rganildi.

*G. olivieri* xomashyosi ekstraktining 250, 500 va 1000 mg/kg dozalarida diareyaning boshlanishida Tvin-80 kiritilgan ijobiy nazorat guruhi sichqonlariga nisbatan kechikishi kuzatildi va eng yuqori bo'lgan 1000 mg/kg dozada statistik ahamiyatli farq kuzatildi ( $p>0,005$ ). *G. olivieri* xomashyosi ekstraktining 250, 500 va 1000 mg/kg dozalarida defekatsiyaning bostirilishi ijobiy nazorat guruhiga nisbatan 15,4; 20 va 49,7%-ni tashkil etdi. Bunda barcha guruhlarga nisbatan ekstraktning 1000 mg/kg dozasi diareyaga qarshi eng yuqori ko'rsatkich namoyon etdi va statistik ahamiyatli farq kuzatildi ( $n>0,005$ ). *G. olivieri* xomashyosi ekstraktining umumiy najaslar shkalasi ballarda baholanganda, ekstraktning 250 mg/kg dozasi diareyaning bostirilishi nazorat guruhiga nisbatan ortdi, lekin statistik farq kuzatilmadi, 500 va 1000 mg/kg dozalarida esa diareyaning bostirilishi nazoratga nisbatan 33,3% va 41,5% bo'lib, farqlar statistik ahamiyatli bo'ldi ( $r>0,05$ ;  $r>0,05$ ). *G. olivieri* xomashyosi ekstraktining 250, 500 va 1000 mg/kg dozalari kiritilgan sichqonlarda nam najaslar og'irligining umumiy najaslar og'irligiga nisbatan diareyaning bostirilishi mos ravishda 16,5%; 31,3 va 39,8% bo'ldi. *G. olivieri* xomashyosi ekstraktida diareyaning bostirilishi nazoratga nisbatan dozaning ortishi bilan ortib bordi.

## XULOSALAR

1. Ilk bor mahalliy floraning yangi istiqbolli dorivor o'simlik — *Gentiana Olivieri* Griseb xomashyosi tizimli farmakognostik tahlil qilindi, shuningdek, uning asosida diareyaga qarshi xususiyatga ega dori vositasini yaratish va standartlash maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslandi.

2. *Gentiana Olivieri* Griseb yer ustki qismi tarkibidagi asosiy biologik faol moddalar identifikatsiya qilindi, shuningdek flavonoidlar, alkaloidlar, oshlovchi moddalar, iridoid glikozid, uglevodlar, aminokislotalar, lipidlar, vitaminlar, mineral moddalar va izoorientin miqdori samarali zamonaviy tahlil usullari, xususan GX, GX-MS, YuSSX, YuSSX-MS, ICP-MS yordamida isbotlandi.

3. *Gentiana Olivieri* Griseb yer ustki qismini standartlash uchun zarur bo'lgan chinlik va sifat ko'rsatkichlarining ishonchli mezonlari ishlab chiqildi. O'simlik xomashyosini standartlashda chinlik va miqdor ko'rsatkichlari oshlovchi modda asosida olib borildi hamda me'yoriy hujjatlarda uning miqdori yer ustki qismida 15,6% ni tashkil etishi belgilandi.

4. Olib borilgan eksperimental tahlillar natijalariga ko'ra, *Gentiana Olivieri* Griseb yer ustki qismining saqlash muddati tabiiy sharoitda 3 yil ekanligi isbotlandi.

5. *Gentiana Olivieri* Griseb xomashyosi - «Gentdiar» dori vositasi uchun korxonada farmakopeya maqolasi loyihasi ishlab chiqildi va tibbiyot amaliyotida ruxsat etilishi uchun Sog'liqni saqlash vazirligi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasiga taqdim etildi.

«GENTIANA» biologik faol qo'shimchaga Texnik shartlar (Ts 28275514-012:2023) va Texnologik yo'riqnoma (Ty 28275514-012:2023) O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan tasdiqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 04/30.12.2019. FAR.32.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ТАШКЕНТСКОМ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ТОШТЕМИРОВА ЧАРОС ТОШТЕМИРОВНА**

**ФАРМАКОГНОСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ГОРЕЧАВКИ ОЛИВЬЕ  
(GENTIANA OLIVIERI GRISEB.)**

**15.00.02 – фармацевтическая химия и фармакогнозия**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)  
ПО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент -2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по фармацевтическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В.2021.1.PhD/Far80.

Диссертация выполнена в Ташкентском фармацевтическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.pharmi.uz](http://www.pharmi.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:	<b>Нормахматов Нодирали Сохобаталиевич</b> доктор химических наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты	<b>Урманова Флюра Фаридовна</b> доктор фармацевтических наук, профессор <b>Абдулладжанова Нодира Гуломжановна</b> доктор химических наук, профессор
Ведущая организация:	<b>Государственное учреждение «Центр безопасности фармацевтической продукции» при Министерстве здравоохранения Республики Узбекистан</b>

Защита диссертации состоится «29» ноября 2024 г в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 при Ташкентском фармацевтическом институте (адрес: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (99871) 256-37-38, факс: (99871) 256-45-04, e-mail: [www.info@pharmi.uz](mailto:www.info@pharmi.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского фармацевтического института (регистрационный номер 63) по адресу: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (99871) 256-37-38.

Автореферат диссертации разослан «15» ноября 2024 года

(Реестр протокола № 63 от «15» ноября 2024 года)



**К.С. Ризаев**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.м.н.

**Е.С. Кариева**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.фарм.н., профессор

**Ф.Ф. Урманова**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.фарм.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** По данным Всемирной организации здравоохранения, 80% населения Земли пользуется народной медициной, в то время как народная медицина опирается в основном на лекарственные растения. В высокоразвитых государствах в последние годы наблюдается резкий рост использования лекарственных растений. В связи с этим важно определить химический состав лекарственного растительного сырья, провести работы по стандартизации, доказать их фармакологическую активность и безопасность.

В настоящее время, в мире проводятся научные исследования по разработке лекарственных препаратов и биологически активных добавок на основе растений, состав которых малоизучен с точки зрения химического состава, стандартизации, фармакогностического анализа, эффективности и безопасности и не включен в фармакопею. В связи с этим особое внимание уделяется всестороннему изучению лекарственных растений, используемых при лечении различных заболеваний, научному обоснованию возможности выделения биологически активных соединений и исследования их фармакологических свойств, а также их применения в официальной медицине.

В сфере фармацевтики в нашей республике осуществляется широкий комплекс мер по удовлетворению потребностей населения в биологически активных веществах, получаемых из лекарственных растений, а также по усилению производства лекарственных средств на основе лекарственных растений с использованием современных технологий. Стратегия развития нового Узбекистана определяет задачи, которые важно реализовать для того, чтобы «Увеличить производство продукции фармацевтической промышленности в 3 раза и довести уровень предложения на местном рынке до 80 процентов»<sup>1</sup>. В связи с этим важно стандартизировать растение *Gentiana Olivieri* Griseb, широко используемое в народной медицине против диареи, изучить его фармакологические эффекты, применить его в медицинской практике и производить на его основе лекарственные средства на местных производственных предприятиях.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных решениями и иными нормативными правовыми актами, относящимися к фармацевтической отрасли, такими как: Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4901 от 26 ноября 2020 года «О мерах по расширению масштаба научных исследований о выращивании и переработке лекарственных растений, развитии налаживания их семеноводства», а также Указ Президента Республики Узбекистан от 21

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»

января 2022 года № ПФ-55 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию фармацевтической промышленности республики в 2022-2026 годах».

**Соответствие исследования приоритетным направлениями развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики VI. «Медицина и фармакология».

